| | |
|---|---|
| **Toshkent shahri 15.07.2023 yil**<br><br>Onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassalarni tegishli dasturiy taminot bilan taminlash va undan foydalanish imkoniyatini yaratish to'g'risida<br>**OMMAVIY OFERTA** | **г. Ташкент 15.07.2023 год**<br><br>**ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА**<br>Об обеспечении соответствующим программным продуктом и создании возможности по его использованию на онлайн - Контрольно-кассовых машинах и виртуальных кассах |
| **1.1.** Ushbu ommaviy oferta O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367, 369-moddalari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassa tizimi qo'llanilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 23 noyabrdagi 943-son qaroriga (bundan buyon matnda - qaror deb yuritiladi) muvofiq, «SMART ONE TECHNOLOGIES» МЧЖ (bundan buyon matnda Texnik xizmat ko'rsatish markazi (TXKM) deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor B.Saloxitdinovning yuridik shaxslar, yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlar (bundan buyon matnda tadbirkorlik subyektlari deb yuritiladi) bilan ushbu ommaviy ofertada nazarda tutilgan shartlarda Onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassalarni tegishli dasturiy taminot bilan taminlash va undan foydalanish imkoniyatini yaratish bo'yicha shartnoma tuzishga rasmiy ommaviy ofertasi (taklif) hisoblanadi.<br><br>Ommaviy oferta Internet tarmog'idagi TXKMning saytida www.smarttechno.uz elektron manzilda joylashtirilgan vaqtdan e'tiboran kuchga kiradi. | **1.1.** Настоящая публичная оферта в соответствии со статьями №367, 369 Гражданского кодекса Республики Узбекистан и Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 943 «О мерах по обеспечению использования онлайн-касс и виртуальных контрольно-кассовых машин» от 23 ноября 2019 года (далее – Постановление) считается официальной публичной офертой (офертой) для заключении договора между ООО «SMART ONE TECHNOLOGIES» (далее – Центр технического обслуживания (ЦТО) в лице исполнительного директора Б.Салохитдинова, действующего на основании Устава, с юридическими лицами, индивидуальными и семейными предпринимателями (далее – хозяйствующие субъекты) на условиях, предусмотренных настоящей публичной офертой, по обеспечению соответствующим программным продуктом и созданию возможности по его использованию на онлайн - контрольно-кассовых машинах и виртуальных кассах.<br><br>Публичная оферта вступает в силу с момента ее размещения в сети Интернет на сайте ЦТО по адресу www.smarttechno.uz. |

| | |
|---|---|
| Ommaviy oferta saytda uni qayta chaqirib olish haqidagi rasmiy xabar joylashtirilgunga qadar amalda bo'ladi.<br>TXKM ommaviy oferta shartlariga o'zgartirish kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi va (yoki) istalgan vaqtda o'z xohishiga ko'ra taklifni qaytarib olish huquqiga ega, bu Internet tarmog'idagi TXKMning elektron manzili www.smarttechno.uz da aks etadi. TXKM tomonidan Ommaviy ofertaga kiritilgan o'zgartirishlar, ular Internet tarmog'idagi TXKMning elektron manzil www.smartone.uz ga joylashtirilganidan so'ng (agar bunday joylashtirishda o'zgartirishlarning kuchga kirishi bo'yicha qo'shimcha ravishda boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa) kuchga kiradi. Agar TXKM xizmatini ko'rsatish, shuningdek Tomonlar tarafidan alohida tuzilgan boshqa shartnomada (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) boshqa shartlar nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Ommaviy oferta shartlari TXKMga murojaat qilgan barcha tadbirkorlik subyektlari uchun yagona bo'ladi.<br>Shartnoma tuziladigan joy Toshkent shahri hisoblanadi. | Публичная оферта действует до момента размещения на сайте официального уведомления о ее отзыве.<br>ЦТО оставляет за собой право вносить изменения в условия публичной оферты и (или) вправе отозвать оферту в любое время по своему усмотрению, что отражается в электронном адресе ЦТО в сети Интернет www.smarttechno.uz. Изменения в Публичной оферте, сделанные ЦТО, после их размещения в сети Интернет по адресу электронной почты ЦТО www.smartone.uz (если иное не указано в размещении о дате вступления в силу изменений), вступают в силу. Если иное не предусмотрено Договором об оказании услуг ЦТО, а также иными договорами, заключенными Сторонами (далее – договор), настоящие Условия публичной оферты являются едиными для всех субъектов хозяйствования, обращающихся в ЦТО.<br><br>Место заключения договора – город Ташкент. |
| **1.2. ATAMALAR VA TA'RIFLAR**<br>Ushbu shartnomada quyidagi atamalar qo'llaniladi:<br>**Foydalanuvchi** — sotilgan tovarlar (bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar) uchun aholi bilan pulli hisob kitoblarni amalga oshirishda onlayn-NKM va (yoki) virtual kassani ishlatadigan TXKM xizmatlaridan foydalanishni istaydigan O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyekti; | **1.2.ТЕРМИНЫ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ**<br>В настоящем Соглашении используются следующие термины:<br>**Пользователь** - субъект предпринимательства, зарегистрированный на территории Республики Узбекистан, желающий воспользоваться услугами ЦТО с использованием онлайн-ККМ и (или) виртуальной контрольно-кассовой машины при осуществлении платных расчётов с населением за реализованные |

| | |
|---|---|
| | товары (выполненные работы и оказанные услуги). |
| Ushbu Ommaviy ofertani qabul qilish Foydalanuvchini www.smarttechno.uz. Platformasida ro'yxatdan o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shartnoma taklif qabul qilingan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi. So'ralgan ma'lumotlarni kiritish va tasdiqlash ushbu shartnoma shartlari bilan kelishuv (qabul qilish) hisoblanadi. | Акцепт настоящей Публичной оферты осуществляется путем регистрации Пользователя на платформе которая работает по адресу www.smarttechno.uz. Договор считается заключенным с момента акцепта оферты. Внесение запрашиваемых данных и подтверждение является согласием (акцептом) с условиями настоящего договора. |
| O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasi 4-bandiga muvofiq ofertani qabul qilish taklifda ko'rsatilgan shartlar bo'yicha shartnoma tuzishga tenglashtiriladi. | Акцепт оферты в соответствии с пунктом 4 статьи 370 Гражданского кодекса Республики Узбекистан приравнивается к заключению договора на условиях, указанных в оферте. |
| **Texnik xizmat ko'rsatish markazi** (bundan buyon matnda TXKM deb yuritiladi) - onlayn- NKM va (yoki) virtual kassalarga uzluksiz servis xizmati ko'rsatuvchi, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Davlat reestriga kiritilgan yuridik shaxslar; | **Центр технического обслуживания (далее - ЦТО)** - юридические лица, осуществляющие бесперебойное обслуживание онлайн - ККМ и (или) виртуальных контрольно - кассовых машин, включенные в Государственный реестр в установленном законодательством порядке; |
| **Onlayn nazorat-kassa mashinalari** (bundan buyon matnda onlayn-NKM deb yuritiladi) - fiskal modulga bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lgan, fiskal hujjatlarni hosil qiluvchi, fiskal hujjatlarni fiskal ma'lumotlar operatoriga real vaqt rejimida uzatishni ta'minlovchi va qog'ozga chop etuvchi elektron hisoblash mashinalari, boshqa qurilmalar va ularning komplekslari; | **Онлайн Контрольно - кассовые машины (далее – Онлайн - ККМ)** - способные подключаться к фискальному модулю, формировать фискальные документы, обеспечивать передачу фискальных документов в режиме реального времени оператору фискальных данных и на бумажно-печатные ЭВМ, иные устройства и их комплексы; |
| **Virtual kassa** - fiskal modulga bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lgan, fiskal hujjatlarni hosil qiluvchi va hosil qilingan fiskal | **Виртуальная касса** – это Программные продукты и их комплексы, которые: имеют возможность подключения к фискальному модулю, формируют фискальные документы и обеспечивают |

| | |
|---|---|
| hujjatlarni fiskal ma'lumotlar operatoriga real vaqt rejimida uzatishni ta'minlovchi, cheklarni qog'ozga chop etish yoki ularni elektron shaklda yuborish funksiyasiga ega bo'lgan dasturiy mahsulot va ularning komplekslari;<br><br>**Fiskal modul** - fiskal ma'lumotlarning kriptografik himoyasini ta'minlaydigan maxsus himoyalangan dasturiy ta'minotga ega bo'lgan, TXKM tomonidan ishlab chiqilgan ixtisoslashtirilgan fizik qurilma;<br><br>**Maxsus dasturiy ta'minot o'rnatilgan fiskal modul** (bundan buyon matnda MDTFM deb yuritiladi) - ixtisoslashtirilgan fizik qurilmada (fiskal modulda) TXKM tomonidan ishlab chiqilgan maxsus himoyalangan dastur;<br><br>**TXKM xizmatlari** - Onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassalarga tegishli dasturiy taminot bilan taminlash va undan foydalanish imkoniyatini yaratish bo'yicha TXKM tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar. | передачу сформированных фискальных документов оператору фискальных данных в режиме реального времени, распечатывают чеки на бумажных носителях или отправляют их в электронном виде;<br>**Фискальный модуль** - специализированное физическое устройство, разработанное ЦТО со специальным защищенным программным обеспечением, обеспечивающим криптографическую защиту фискальных данных;<br>**Фискальный модуль со специальным программным обеспечением** (далее - ФМСПО) - это специально защищенная программа, разработанная ЦТО на специализированном физическом устройстве (фискальном модуле);<br>**Услуги ЦТО** — это услуги, предоставляемые ЦТО для обеспечения соответствующим программным продуктом и создании возможности по его использованию на онлайн-ККМ и виртуальных кассах. |
| **2. SHARTNOMANI TUZISH TARTIBI**<br>**2.1.** O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 364, 370-moddalariga muvofiq Shartnoma ushbu Ommaviy oferta aksept yo'li orqali, ya'ni ushbu ommaviy oferta shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilish orqali tuziladi.<br><br>**2.2.** Aksept ushbu ommaviy oferta shartlariga muvofiq foydalanuvchi | **2. ПОРЯДОК ЗАКЛЮЧЕНИЯ ДОГОВОРА**<br>**2.1.** В соответствии со статьями 364 и 370 Гражданского кодекса Республики Узбекистан Договор заключается путем акцепта настоящей Публичной оферты, то есть путем полного и безоговорочного принятия условий настоящей Публичной оферты.<br>**2.2.** Акцептом является оплата (предоплата) Пользователем соответствующих услуг в соответствии с |

| | |
|---|---|
| tomonidan tegishli xizmatlari uchun to'lovni (oldindan to'lovni) amalga oshirish hisoblanadi, bu esa ushbu ommaviy oferta shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilish (aksept) dan dalolat beradi.<br>**2.3.** Akseptdan oldin foydalanuvchi ushbu ommaviy ofertaning barcha shartlari bilan tanishib chiqishi shart. Akseptni amalga oshirgan foydalanuvchi ushbu ommaviy ofertaning barcha shartlari bilan tanishgan va rozi bo'lgan deb hisoblanadi, bunda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366, 370-moddalariga muvofiq shartnoma ushbu ommaviy oferta shartlariga ko'ra yozma ravishda tuzilgan va ikki tomondan imzolangan teng yuridik kuchga ega shartnoma (bundan buyon matnda - shartnoma deb yuritiladi) hisoblanadi.<br>Ushbu ommaviy ofertada ko'rsatilgan shartlarda shartnoma tuzish vaqti xizmatlar uchun to'lovni (oldindan to'lovni) amalga oshirish hisoblanadi.<br>2.4. Qarorga muvofiq, ushbu ommaviy oferta to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab to'liq bir yil davomida amal qiladi.<br><br>**2.5.** Agar zaruriyat bo'lsa yoki tomonlarning birining iltimosiga binoan tomonlar o'rtasida alohida shartnoma tuzilishi mumkin. | условиями настоящей публичной оферты, что свидетельствует о полном и безоговорочном принятии (акцепте) условий настоящей публичной оферты.<br>**2.3.** Перед акцептом пользователь должен ознакомиться со всеми условиями настоящей Публичной оферты. Пользователь, осуществивший акцепт, считается ознакомленным и согласным со всеми условиями настоящей Публичной оферты, при условии, что в соответствии со статьями 366 и 370 Гражданского кодекса Республики Узбекистан договор заключенный в письменной форме и подписаный обеими сторонами является договором (далее - договор).<br>По условиям настоящей Публичной оферты моментом заключения договора является оплата (предоплата) услуг.<br><br>2.4. Согласно решению, настоящая публичная оферта будет действовать в течение одного календарного года с момента оплаты.<br>**2.5.** При необходимости или по требованию одной из сторон между сторонами может быть заключен отдельный договор. |
| **3. Shartnoma mazmuni**<br>**3.1.** Ushbu ommaviy oferta va shartnomaning mazmuni - xizmatlarni ko'rsatish, shuningdek, ushbu xizmatlarni qabul qilib olish va onlayn - NKM va virtual kassa foydalanuvchisi tomonidan Qaror talablariga muvofiq ushbu xizmatlar uchun to'lov qilish hisoblanadi.<br>**3.2.** Xizmatlar foydalanuvchi tomonidan | **3. Предмет договора**<br>**3.1.** Предметом настоящей публичной оферты и договора является оказание услуг, получение этих услуг и оплата этих услуг пользователем онлайн - ККМ и виртуальных касс в соответствии с требованиями Постановления. |

| | |
|---|---|
| tegishli to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng 10 (o'n) ish kuni ichida faollashtiriladi. | **3.2.** Услуги будут активированы в течение 10 (десяти) рабочих дней после внесения пользователем соответствующего платежа. |
| **3.3.** TXKM shartnoma shartlariga binoan Qarorda ko'zda tutilgan tartibda xizmat ko'rsatadi | **3.3.** ЦТО оказывает услуги в соответствии с условиями договора в порядке, установленным Постановлением. |
| **4. Xizmatlar narxi va hisob-kitoblash tartibi** | **4. Цена услуг и порядок расчета** |
| **4.1.**TXKM xizmatlari uchun foydalanuvchi tomonidan 100 000 (yuz ming so'm) miqdorida TXKM hisob-raqamlariga to'lov amalga oshiriladi. | **4.1.** Пользователь осуществляет оплату в размере 100 000 (Сто тысяч сумов) за услуги на расчетный счет ЦТО. |
| **4.2.** TXKM xizmatlari uchun to'lov foydalanuvchi tomonidan ushbu xizmatlar umumiy qiymatining 100 (yuz) foizi miqdorida oldindan to'lov shaklida amalga oshiriladi. | **4.2.** Оплата услуг ЦТО производится пользователем в виде предоплаты в размере 100 (Сто) процентов от общей стоимости данных услуг. |
| **4.3.** To'lov amalga oshirilgach TXKM tomonidan hisob-faktura taqdim etiladi. Xizmat ko'rsatilgach hisob-faktura va Bajarilgan ish to'grisida Dalolatnoma Foydalanuvchi tomonidan 2 kun ichida imzolanishi shart. Hisob-faktura va Bajarilgan ish to'grisida Dalolatnoma qonunchilikda belgilangan muddatda tasdiqlanmasa, Foydalanuchi ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilgan hisoblanadi va hisob-faktura bilan Bajarilgan ish to'grisida Dalolatnoma qabul qilinganligi nizosiz tasdiqlanadi. | **4.3.** После получения оплаты со стороны ЦТО будет выставлена счёт-фактура. Счет-фактура и акт выполненных работ должен быть подписан Пользователем в течение 2-х дней после оказания услуги. Если счет-фактура и акт выполненных работ не подтверждается в течение указанного срока согласно законодательству, считается, что Пользователь получил услуги, и получение счета-фактура и акт выполненных работ подтверждается без оспаривания. |
| **4.4.** Shartnoma bo'yicha barcha to'lovlar milliy valyutada (so'mda), naqd pulsiz to'lov usuli orqali, tadbirkorlik subyektining hisobvarag'idan mablag'larni TXKM hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Narx qat'iy hisoblanadi, ushbu ommaviy ofertaning amal qilish muddati | **4.4.** Все расчеты по договору осуществляются в национальной валюте (в сумах), в безналичном порядке, путем перечисления денежных средств с расчетного счета хозяйствующего субъекта на расчетный счет ЦТО. Цена является фиксированной, определяется на срок действия настоящей публичной |

| | |
|---|---|
| uchun belgilanadi va to'lov kunidagi qonun hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining o'zgarishi munosabati bilan o'zgaradi.<br><br>**4.5.** TXKM xizmatlari narxiga nisbatan ortiqcha to'langan summa Foydalanuvchining yozma so'rovnomasi asosida qaytarilishi yoki TXKM xizmatlari to'lovi bo'yicha bo'nak sifatida kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkazilishi mumkin. | оферты и изменяется в связи с изменением установленной законодательством базовой суммы расчета на дату платежа.<br>**4.5.** Сумма, излишне уплаченная в отношении стоимости услуг ЦТО, может быть возвращена по письменному заявлению Пользователя или переведена на счет будущих платежей в счет оплаты услуг ЦТО. |
| **5. Tomonlarning majburiyatlari va Huquqlari**<br><br>**5.1.** TXKM quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:<br>**5.1.1.** Onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassalarni tegishli dasturiy ta'minot bilan taminlash;<br><br>**5.1.2.** Undan foydalanish imkoniyatini yaratish;<br>**5.2.** TXKM quyidagi huquqqa ega:<br>**5.2.1.** Foydalanuvchidan shartnoma shartlarini, shuningdek Qaror va qonun hujjatlari talablarini bajarilishini, shu jumladan TXKM xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirilishini talab qilish.<br>**5.2.2.** Agar Foydalanuvchi Shartnoma shartlari va Qaror bilan uning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni buzsa, jumladan TXKM xizmatlari uchun tegishli to'lovlarni amalga oshirmaslik yoki lozim darajada amalga oshirmaslik, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar Foydalanuvchi tomonidan bartaraf etilgunga qadar xizmat ko'rsatilishini to'xtatib qo'yish. Agar ko'rsatilgan xizmatlar keying oyning 10 (o'n) kun ichida mijozga xizmat ko'rsatish | **5. Права и обязанности сторон**<br><br>**5.1.** На ЦТО возложены следующие обязанности:<br>**5.1.1.** Обеспечение соответствующим программным продуктом онлайн - Контрольно-кассовых машин и виртуальных касс;<br>**5.1.2.** Создание возможности по его использованию;<br>**5.2.** ЦТО имеет следующие права:<br>**5.2.1.** Требовать от Пользователя выполнения условий договора, а также требований Постановления и законодательства, в том числе по оплате услуг ЦТО.<br>**5.2.2.**В случае нарушения Пользователем условий Соглашения и обязательств, возложенных на него Решением, в том числе неуплата или ненадлежащая оплата услуг ЦТО, приостановка (полная остановка) оказания услуг до устранения Пользователем допущенных ошибок и недочетов. При отсутствии письменной претензии по обслуживанию клиентов в течение 10 (десяти) дней следущего |

| | |
|---|---|
| bo'yicha biron bir yozma da'vo kelib tushmasa, ish to'liq bajarilgan deb hisoblanadi va bunda alohida dalolatnomani tuzish shart emas. | месяца работа считается выполненной и не требует составления отдельного акта. |
| **5.3.** Foydalanuvchi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi: | **5.3.** Пользователь принимает на себя следующие обязательства: |
| **5.3.1.** O'zining O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan vazifalarini to'g'ri va vijdonan bajarish; | **5.3.1.** Четкое и добросовестное выполнение своих обязанностей в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан и договором; |
| **5.3.2.** Shartnomada nazarda tutilgan tartib va shartlarda TXKM xizmatlari uchun to'lovlarni o'z vaqtida va lozim darajada amalga oshirish; | **5.3.2.** Своевременно и надлежащим образом оплачивать услуги ЦТО в порядке и на условиях, указанных в договоре; |
| 5.4. Foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega: | **5.4.** Пользователь имеет следующие права: |
| **5.4.1.** Davlat reestriga kiritilgan onlayn-NKM va (yoki) virtual kassalarni mustaqil ravishda sotib olish, shuningdek TXKM ni erkin tanlash; | **5.4.1.** Самостоятельно приобретать онлайн-ККМ и (или) виртуальных кассу, включенных в Госреестр, а также свободный выбор ЦТО; |
| **5.4.2.** onlayn-NKM va (yoki) virtual kassani tegishli dasturiy ta'minot bilan taminlash rad etilganda, ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etib, ro'yxatga olish uchun qayta murojaat qilish. | **5.4.2.** В случае отказа в обеспечении соответствующим программным продуктом онлайн-ККМ и (или) виртуальной кассы, повторно подать заявку на регистрацию, устранив указанные недостатки. |
| **6. Tomonlarning javobgarligi** | **6. Ответственность сторон** |
| **6.1.** Tomonlarning javobgarligi amaldagi Qonunchilik bilan belgilanadi. | **6.1.** Ответственность сторон определяется действующим законодательством. |
| **6.2.** Xizmatlar uchun to'lov o'z vaqtida to'lanmasa, foydalanuvchi TXKMga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov miqdorining 0,4 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan | **6.2.** В случае несвоевременной оплаты услуг, Пользователь уплачивает в ЦТО пеню в размере 0,4% от суммы просрочки за каждый день просрочки, но не более 50% от суммы просрочки. |
| | **6.3.** ЦТО несет ответственность перед |

| | |
|---|---|
| miqdorda penya to'laydi.<br>**6.3.** TXKM foydalanuvchi oldida shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan tartibda va miqdorda javobgar bo'ladi.<br><br>**6.4.** Onlayn-NKM va (yoki) virtual kassaning, shu jumladan Internet-aloqaning joriy holati uchun javobgarlik foydalanuvchiga shaxsan yuklatiladi (Internet-provayder yoki mobil aloqa operatorining ish faoliyatida yuzaga keladigan alohida texnik muammolar bundan mustasno). | пользователем за неисполнение или ненадлежащее исполнение договорных обязательств в порядке и размере, предусмотренных законодательством Республики Узбекистан.<br>**6.4.** Ответственность за текущее состояние онлайн-ККМ и (или) виртуальной кассы, в том числе интернет - соединения, лежит на пользователе лично (за исключением отдельных технических проблем, возникающих в работе интернет-провайдера или оператора мобильной связи). |
| **7. Shartnomaning amal qilish muddati**<br>**7.1.** Shartnoma TXKM xizmatlari shartnomaning 3.2-bandiga muvofiq faollashtirilgan kundan boshlab bir yil davomida amal qiladi.<br>**7.2.** Shartnoma muddati tugashidan so'ng 10 (o'n) kun ichida tomonlar o'zaro shartnomani bekor qilish to'g'risida yozma ravishda bir-birlarini ogohlantirmagan taqdirda, shartnoma keyingi muddatlarga (yillarga) shu shartlarda tuzilgan hisoblanadi.<br><br>**8. Talabnomalarni ko'rib chiqish tartibi**<br>**8.1.** Shartnoma bo'yicha TXKM majburiyatlari bajarilmasa yoki lozim darajada bajarilmasa, foydalanuvchi TXKMga talabnoma bilan murojaat qiladi.<br><br>**8.2.** Talabnoma foydalanuvchi tomonidan yozma ravishda taqdim etiladi.<br>**8.3.** TXKM talabnoma olingan kundan | **7. Срок действия Публичной аферты**<br>**7.1.** Публичную аферта действует в течение одного календарного года с момента подключения услуг ЦТО в соответствии с пунктом 3.2 договор.<br>**7.2.** Если по истечении срока договора в течение 10 (десяти) дней стороны не изъявят желание в письменном виде расторгнуть договор, данный договор пролонгируется на следующие годы (периоды) на тех же условиях.<br><br>**8. Порядок рассмотрения обращений**<br><br>**8.1.** В случае неисполнения или ненадлежащего исполнения обязательств ЦТО по договору, пользователь обращается в ЦТО в письменной форме.<br>**8.2.** Заявка должна быть подана пользователем в письменной форме.<br>**8.3.** ЦТО обязан ответить на заявление не позднее 15 (пятнадцати) дней с даты его получения. Ответ на запрос направляется |

| | |
|---|---|
| boshlab 15 (o'n besh) kundan kechiktirmay unga javob berishga majburdir. Talabnomaga javob buyurtma xat, telegraf, teletayp orqali, elektron shaklda yuboriladi yoki foydalanuvchiga tilxat asosida beriladi. | заказным письмом, телеграфом, телетайпом, в электронном виде или выдается пользователю на основании расписки. |
| **9. Nizolarni hal qilish tartibi**<br>**9.1.** Shartnomani bajarish bo'yicha barcha nizolar va kelishmovchiliklar Tomonlar tarafidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu ommaviy oferta shartlariga muvofiq hal etiladi. Tomonlar o'zaro kelisha olmagan kelishmovchiliklar TXKM joylashgan joydagi sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi shart. | **9. Порядок разрешения споров**<br>**9.1.** Все споры и разногласия по реализации Соглашения разрешаются Сторонами в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан и условиями настоящей публичной оферты.<br>Разногласия между сторонами подлежат разрешению в судебном порядке по месту нахождения ЦТО. |
| **10. Fors major**<br>**10.1.** Ushbu Ommaviy oferta Tomonlarining o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarishlariga to'sqinlik qiladigan yengib bo'lmas kuch ta'sir etgan taqdirda, masalan: yong'in, tabiiy ofatlar, urush, davlat organlari tomonidan faoliyatni taqiqlash yoki cheklash yoki boshqa shunga o'xshash holatlar yuz berganda, Tomonlarning ushbu Ommaviy oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish vaqti yuzaga kelgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi. Bunday holatlarning kelib chiqishi tegishli vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanishi kerak. Ushbu Ommaviy oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkoni bo'lmagan Tomon 5 (besh) kalendar kunidan kechikmay, bunday holatlar yuzaga kelganligi va tugaganligi to'g'risida boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilishi kerak. | **10. Форс-мажор**<br>**10.1.** В случае возникновения обстоятельств непреодолимой силы, препятствующих исполнению Сторонами своих обязательств полностью или частично, например: пожар, стихийное бедствие, война, запрет или ограничение деятельности органами государственной власти или иные подобные ситуации, срок Исполнение Сторонами своих обязательств по настоящей Публичной оферте откладывается пропорционально времени наступления. Происхождение таких случаев должно быть подтверждено соответствующими органами. Сторона, не имеющая возможности исполнить свои обязательства по настоящей Публичной оферте, обязана письменно уведомить другую Сторону о наступлении и прекращении таких |

| | |
|---|---|
| | обстоятельств не позднее 5 (пяти) календарных дней. |
| **10.2.** Agar fors-major holatlari bir oydan ko'proq davom etsa, har bir Tomonlar ushbu Ommaviy ofertani bekor qilish huquqiga ega. Bunday holda, Tomonlardan hech biri boshqa Tomondan ushbu Ommaviy ofertani bekor qilish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega emas. Bunday holda, Tomonlar o'rtasida Ommaviy ofertani bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng 10 (o'n) kalendar kunidan kechiktirmay, qarzlar bo'yicha o'zaro hisob-kitob o'tkaziladi, ulardan biri tegishli yozma xabarnomani oladi. | **10.2.** Если обстоятельства непреодолимой силы длятся более месяца, каждая Сторона вправе аннулировать настоящую Публичную оферту. При этом ни одна из Сторон не вправе требовать от другой Стороны возмещения ущерба, причиненного в результате аннулирования настоящей Публичной оферты. При этом не позднее 10 (десяти) календарных дней после принятия решения об аннулировании Публичной оферты между Сторонами производится взаиморасчет задолженности, одним из которых является письменное уведомление. |
| **10.3.** Xabardor qilmaslik yoki o'z vaqtida xabar bermaslik, Tomonni ushbu Ommaviy oferta bo'yicha majburiyatlami bajarmaganligi sababli javobgarlikdan ozod qilish uchun yuqoridagi holatlardan foydalanish huquqidan mahrum qiladi. | **10.3.** Неуведомление или уведомление в установленные сроки лишает Сторону права использовать вышеуказанные обстоятельства для освобождения ее от ответственности за неисполнение своих обязательств по настоящей Публичной оферте. |
| **11. Ma'lumotlarni oshkor qilish va maxfiylik** | **11. Раскрытие данных и конфиденциальность** |
| **11.1.** TXKM xizmatlarini taqdim etishda foydalanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligi kafolatlanadi. | **11.1.**Конфиденциальность пользовательской информации гарантируется при предоставлении услуг ЦТО. |
| **11.2.** Tomonlar shartnoma va u bilan ta'minlangan majburiyatlarning maxfiyligini ta'minlaydi va ikkinchi tomonning yozma roziligisiz shartnomani bajarish paytida va (yoki) u bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaydi. | **11.2.** Стороны обеспечивают конфиденциальность договора и своих обязательств и не разглашают третьим лицам при исполнении договора и (или) связанную с ним информацию без письменного согласия другой стороны. |

| | |
|---|---|
| **12. Boshqa shartlar** | **12. Другие условия** |
| **12.1.** Shartnoma bajarilishi munosabati bilan savollar yuzaga kelgan hollarda, foydalanuvchi Call-markaz xizmatidan 78 113 80 08 raqami orqali foydalanishi mumkin.<br>**12.2.** Ushbu ofertada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladi. | **12.1.** В случае возникновения вопросов, связанных с исполнением договора, пользователь может воспользоваться услугой Call-центра по номеру<br>78 113 80 08.<br>**12.2.** Во всех иных случаях, не предусмотренных настоящей офертой, стороны руководствуются действующим законодательством Республики Узбекистан. |
| **13. Manzil va rekvizitlar:** | **3. Адрес и реквизиты:** |
| «SMART ONE TECHNOLOGIES» MCHJ<br>Adres: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tuman, Afrosiyob ko'chasi, 16-uy.<br>X/r: 2020 8000 7051 2588 4001<br>Bank: AITB «Ipak Yo'li»<br>Bank kodi (MFO):00444<br>STIR: 306 733 959 OKED: 62020 | ООО «SMART ONE TECHNOLOGIES»<br>Адрес: Республика Узбекистан,<br>г. Ташкент, Мирободский р-н,<br>ул. Афросиёб, дом 16.<br>р/с 2020 8000 7051 2588 4001<br>Банк: АИКБ «Ипак Йули»<br>Код банка (МФО): 00444<br>ИНН: 306 733 959 ОКЭД: 62020 |
| **Direktor __________ B.Saloxitdinov** | **Директор __________ Б.Салохитдинов** |

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHAR MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI * SMART ONE TECHNOLOGIES

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHAR MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI * SMART ONE TECHNOLOGIES